



INTELLEKTUAL MULK OBYEKTлари VA ULARNING HUQUQIY MUHOFAZASI ASOSLARI

Ashurov Nuriddin Nuraliyevich

Ilmiy rahbar: –

Toshkent davlat agrar universiteti
Huquqshunoslik kafedrası assistenti

Tel: +998909403641

Elektron pochta: ashurovn92@mail.ru

Zinat Xudoyberdiyeva Xayrullo qizi

Talaba:

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Tel:+998502220298

Elektron pochta:Djumanazarovulugbek98@gmail.com

Iroda Totliboyeva

Talaba:

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Tel:+998958171805

Elektron pochta:iroda2293@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15574052>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

KEY WORDS

Intellekt, intellektual faoliyat, muallif, patent, guvohnoma, mualliflik huquqi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada fuqarolik qonunchiligida belgilangan intellektual mulk obyektlari turlari hamda ularni huquqiy muhofaza qilish asoslari, shuningdek, intellektual mulk obyektlariga vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza yorlig'i berilishining tartibi haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Mavzuga oid amaliyot va nazariy yondashuvlar tahlil qilingan.

Zamonaviy iqtisodiyot rivojida intellektual faoliyat natijalari asosida yaratilgan obyektlar muhim rol o'ynamoqda. Ayrim mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining uchdan bir qismi aynan intellektual mulk obyektlari keltiradigan daromad hisobiga shakllanmoqda. Mamlakatimiz fuqarolik qonunchiligida intellektual mulk huquqi instituti alohida institut sifatida shakllanib ulgurdi. So'nggi yillarda bu sohani tartibga solishga qaratilgan bir qancha

qonunchilik hujjatlari qabul qilinib, intellektual mulk obyektlari huquqiy muhofazasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hayotimizni yengillashtirayotgan, vaqtni tejashga imkon yaratayotgan va yuqori daromad keltirayotgan har bir soha zamirida intellektual faoliyat natijasi mavjud. Shundan kelib chiqib aytish kerakki, davlat tomonidan intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilishni takomillashtirish har doimgi asosiy vazifalardan biridir. Fuqarolik kodeksi 1031-moddasiga ko'ra intellektual mulk obyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) intellektual faoliyat natijalari:

fan, adabiyot va san'at asarlari;

ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari; elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari; ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;

seleksiya yutuqlari;

oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);

2) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar:

firma nomlari;

tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);

geografik ko'rsatkichlar;

tovarlar chiqarilgan joy nomi;

3) ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar. Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish mazkur obyektlarning yaratilganlik, davlat ro'yxatidan o'tkazilib huquqiy muhofaza berilishi asosida yuzaga keladi.

Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza ostiga olish:

- ularning yaratilganlik fakti asosida;

- FKda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza hujjati berilishi asosida vujudga keladi.

Oshkor etilmagan axborotga nisbatan huquqiy muhofaza berish shartlari qonun bilan belgilanadi.

Intellektual obyektlarning quyidagi turlari bo'yicha ularni huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilishi (vujudga kelish) fakti asosida sodir bo'ladi:

- fan, adabiyot, san'at asarlari;

- EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;

- ijrolar, ijrolarni sahnalashtirish, eshittirish va ko'rsatuvlar;

- topologik va integral sxemalar.

Bunda obyekt ijodkor tomonidan og'zaki, yozma, tasvir shaklida yoki boshqalar tomonidan idrok etish (qabul qilish) uchun imkon beradigan boshqa obyektiv shaklda mujassam etilishi bilan yaratilgan hisoblanadi. Binobarin, shu vaqtdan boshlab unga nisbatan boshqa shaxslarda subyektiv huquqlar vujudga keladi va huquqiy muhofaza qilinadi. Bunday holda obyektidan uchinchi shaxslarning foydalangan bo'lishi, obyekt ro'yxatdan o'tkazilishi yoki boshqa rasmiyatchiliklarga rioya etilishi talab etilmaydi. Hatto obyekt keyinchalik ro'yxatdan o'tkazilishi lozimligi haqidagi qoida mavjud bo'lsa ham (masalan, EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari uchun davlat ro'yxati mavjud) bu holat ularning huquqiy muhofaza qilish holatiga ta'sir etmaydi. Bunda intellektual mulk obyektlari O'zbekiston Respublikasi hududida yoki xorijiy davlat hududida yaratilganligi fakti ahamiyatga ega emas. Intellektual mulk quyidagi obyektlarining huquqiy muhofazasi davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza yorlig'i berilishi asosida vujudga keladi:

- ixtiro, sanoat namunasiga nisbatan patent beriladi;

- foydali modelga nisbatan guvohnoma beriladi («Ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasi);

- seleksiya yutuqlariga nisbatan patent beriladi;

- tovar (xizmat ko'rsatish) belgisiga nisbatan u davlat ro'yxatidan o'tkazilib, guvohnoma beriladi;

- firma nomi davlat ro'yxatidan o'tkazilib (reestrda kiritilib) bu haqda dalolatnoma

beriladi;

- tovar chiqarilgan joy nomiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilib, undan foydalanish huquqi to'g'risida guvohnoma beriladi. Intellektual mulkni davlat ro'yxatidan o'tkazib, huquqiy muhofazasini ta'minlashda Adliya vazirligining Intellektual mulk departamenti vakolatli organ hisoblanadi. Intellektual mulk obyektiga nisbatan berilgan huquqiy muhofaza yorlig'ida obyekt nomi, uning alohida xususiyatlari, ushbu obyekt muallifi (ixtiro, foydali model, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlariga nisbatan huquqlar sohibining nomi) huquqiy muhofaza muddatining boshlanish va bekor bo'lish vaqti, ushbu yorliqni bergan vakolatli davlat organi nomi ko'rsatiladi, uning rahbari tomonidan imzolanib, muhr bilan tasdiqlanadi. Firma nomiga berilgan huquqiy muhofaza yorlig'ining amal qilishi muddat bilan chegaralanmaydi. Tovar (xizmat ko'rsatish) belgisi, tovar chiqarilgan joy nomiga bo'lgan huquq bo'yicha berilgan huquqiy muhofaza yorlig'i amal qilish muddati vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda uzaytirib turilishi mumkin. Sanoat namunasi va foydali modelga nisbatan berilgan huquqiy muhofaza yorlig'i cheklangan muddatga uzaytirilishi mumkin. Xulosa o'rnida qayd etish kerakki, hayotimizning har jabhasida raqamli texnologiyalarning kirib borishi, bunga aholi ehtiyojlarining ortishi, hayot suratlaring tezlashishi, insonlarning yashash tarzini yanada yengillashtirishga qaratilgan islohotlarning zamirida davlatning intellektual faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma'noda intellektual mulk obyektlari huquqiy muhofazasini ta'minlash, mualliflarning intellektual faoliyati natijasi asosida oladigan daromadini kafolatlash nafaqat fuqarolarning balki mamalakat iqtisodiyoti farovonligiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni 2006-yil 20-iyul, O'RQ 42-son. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
3. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonuni. 2002-yil 29-avgust, 397-II-son. URL: <https://lex.uz/docs/-76671>
4. Intellektual mulk. Darslik. Mualliflar jamoasi.-T.: TDYU nashriyoti, 2019. -588 bet.
5. www.lex.uz
6. www.ima.uz